# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2023-yil 9-sentabr, № 189 (8532) Shanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## ETNOSPORTNI OMMALASHTIRISH SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKNI YANADA KENGAYTIRISH MUHIMLIGI TA’KIDLANDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-sentabr kuni Butunjahon etnosport konfederatsiyasi raisi Najmiddin Bilol Erdog‘an boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.**



Milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini yanada rivojlantirish va ommalashtirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Uchrashuv avvalida Bilol Erdog‘an O‘zbekiston yetakchisiga Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ilk bor Xiva shahrida dunyoning 60 dan ziyod mamlakatlaridan qariyb 2 ming nafar sportchilar ishtirokida o‘tkazilayotgan Xalqaro etnosport festivali qo‘llab-quvvatlangani va yuksak darajada tashkil etilgani uchun samimiy minnatdorlik bildirildi.

Suhbatda qo‘shma “Yo‘l xaritasi” asosida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, tajriba almashish, mutaxassislar, murabbiy va hakamlarni tayyorlash, yoshlarni etnosportga keng jalb qilish bo‘yicha hamkorlikni kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

## SANOAT MAHSULOTLARINI KO‘PAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI MUHOKAMA QILINDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 8-sentabr kuni tarmoq va hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni oshirish chora-tadbirlari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi.**

Iqtisodiyotga investitsiya va ilg‘or texnologiyalar faol jalb etilayotgani natijasida sanoat izchil rivojlanmoqda. Joriy yilning yetti oyida yurtimizda sanoat mahsulotlari hajmi 5,7 foizga o‘sib, 345 trillion so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich elektr texnikasi sanoatida 46 foiz, yengil avtomobillarda 16 foiz, qurilish materiallari tarmog‘ida 12 foiz, tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishda 11 foizni tashkil qilgan.

Ish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan joylarda o‘zgarish bo‘lmoqda. Xususan, sanoat ko‘rsatkichi Bandixonda 45 foiz, Kitobda 19 foiz, Qiziriqda 18 foiz, Kegeylida 14 foiz o‘sgan. Shu kabi 25 ta tuman va shaharda sanoat hajmi 10 foizdan ziyod ko‘paygan.

Umuman, yil boshidan buyon mamlakatimiz bo‘yicha 2 mingta yangi sanoat loyihasi ishga tushirilib, yil yakunigacha qo‘shimcha 1 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish imkoni yaratildi.

Misol uchun, “Pistali” oltin konida yangi metallurgiya zavodi muddatidan oldin quvvatga kiritilgani hisobiga shu yilning o‘zida qo‘shimcha 840 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqariladi. Zavoddagi qariyb 50 million dollarlik uskunalar sanoat kooperatsiyasi asosida o‘zimizda tayyorlangan.

Lekin hamma tarmoq va hududda ham imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayapti. 34 ta tuman va shaharda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yildagiga nisbatan pasaygan. Ayrim tarmoqlarda, jumladan, farmatsevtika, charm-poyabzal, to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish va eksport sur’ati sekinlashgan.

Yig‘ilishda qayd etilganidek, sohada yangi imkoniyat va zaxiralarni aniqlash uchun hududlarga ishchi guruhlar yuborilgan. Misol uchun, Toshloq tumanida 23 ta korxona quvvatlarini tiklash va 22 ta yangi loyihani tezlashtirish hisobiga yil yakunigacha qo‘shimcha 1 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish mumkinligi aniqlangan.

Yana bir imkoniyat — tumanlarda sanoat kooperatsiyasini kengaytirib, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish.

Masalan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati mahalliy sanoat korxonalari bilan kooperatsiyani yo‘lga qo‘yib, polimer, quyma ehtiyot qismlar, kimyoviy reagent kabi 1 trillion so‘mlik mahsulotlar olmoqda. Xuddi shunday imkoniyatlar Andijon, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Xorazmda ham bor.

Ishlab chiqarish barqarorligidagi asosiy masalalardan biri — energiya ta’minoti. Shu bois Bosh vazir rahbarligidagi komissiyaga qo‘shimcha ishlab chiqarishni hisobga olgan holda hududlarning oyma-oy energiya balansini ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi. Sanoat korxonalarini oldindan xabardor qilmasdan turib, elektr ta’minotidan uzish mumkin emasligi qat’iy ko‘rsatib o‘tildi.

Yil yakunigacha 232 ta mahalliy sanoat korxonasida mahsulot hajmini oshirish, 210 ta yirik sanoat loyihasini to‘liq ishga tushirish zarurligi qayd etildi. Sanoat jamg‘armasidan samarali foydalanish, zarar ko‘rib ishlayotgan sanoat korxonalarini sog‘lomlashtirish, eksportchilarga transport jihatdan ko‘maklashish borasida topshiriqlar berildi.

Yig‘ilishda tarmoq rahbarlari va viloyat hokimlari yil yakunigacha mo‘ljallangan ishlab chiqarish va eksport ko‘rsatkichlari, sanoat korxonalarini kuz-qish mavsumida energiya resurslari bilan ta’minlash choralari bo‘yicha axborot berdi.

**O‘zA.**

## XALQARO ETNOSPORT FESTIVALI ISHTIROKCHILARIGA

Hurmatli festival qatnashchilari!

Qadrli do‘stlar!

Xonimlar va janoblar!

Barchangizni butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida shuhrat qozongan, ko‘hna va betakror Xiva shahrida **Xalqaro etnosport festivalining** ochilishi bilan chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Yurtimizda birinchi bor o‘tkazilayotgan ushbu anjumanda YUNESKO, TURKSOY, Butunjahon etnosport konfederatsiyasi hamda unga a’zo davlatlar vakillari, shuningdek, 63 ta mamlakatdan qariyb 930 nafar etnosport namoyandalari, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etayotgani festivalga dunyo miqyosida qiziqish va e’tibor naqadar katta ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Mazkur xalqaro anjumanning uch ming yildan ziyod shonli o‘tmishga ega bo‘lgan Xorazm zaminida o‘tkazilayotgani albatta bejiz emas. Bu qutlug‘ voha bizning boy tarix va madaniyatimiz, milliy qadriyatlarimizning qadimiy beshiklaridan biridir. Ushbu diyordan yetishib chiqqan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Pahlavon Mahmud singari mard va jasur ajdodlarimiz, mohir sarkardalarimiz bilan biz haqli ravishda faxrlanamiz.

Ma’lumki, xalqning tarixi, milliy qadriyat va an’analarini o‘zida mujassam etadigan etnosport turlari yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, jismoniy va ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, dunyo davlatlari bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Shu bois mamlakatimizda milliy xalq o‘yinlarini targ‘ib etish va ommalashtirish, bu yo‘nalishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Keyingi yillarda bu borada qator qarorlar, jumladan, **Etnosport turlarini 2025-yilgacha ommalashtirish va rivojlantirish dasturi** qabul qilindi.

Ayniqsa, milliy sport turlari bo‘yicha uch bosqichli musobaqalar tizimi tashkil etilgani, Toshkent shahrida har yili bir marta etnosport turlari bo‘yicha respublika festivali, Xiva shahrida esa ikki yilda Xalqaro etnosport festivalini o‘tkazish yo‘lga qo‘yilgani bu boradagi muhim amaliy qadamlarimizdir.

Yurtimizda har bir tuman va shaharning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqib, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini ommalashtirish va rivojlantirish, sport musobaqalarini tashkil etish bo‘yicha hududiy dasturlar qabul qilindi.

Ayrim etnosport turlari bo‘yicha boshqaruv tizimi hamda sportchi va trenerlar zaxirasi shakllantirilgani, musobaqalarni doimiy o‘tkazish va ularni moliyalashtirish joriy etilgani bu sohadagi ishlarni muntazamlik asosida olib borish imkonini bermoqda.

O‘sh avlod o‘rtasida milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini ommalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ushbu yo‘nalishda malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish masalalari ham e’tiborimiz markazida bo‘lib kelmoqda.

Bu boradagi ishlarni izchil davom ettirgan holda, yurtimizda milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ro‘yxatlari shakllantirildi, o‘zbek kurashini YUNESKOning etnosport milliy o‘yinlari nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritish choralari ko‘rilmoqda.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fursatdan foydalanib, ushbu festivaldagi ishtirokingiz uchun siz, azizlarga, xorijiy davlatlarning muhtaram elchilariga, xalqaro tashkilotlar vakillariga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Ishonchim komil, birgalikdagi sa’y-harakatlarimiz bilan bu festival dunyodagi nufuzli sport anjumanlari qatoridan munosib o‘rin egallaydi.

Festival doirasida o‘tkaziladigan sport musobaqalari, xalqaro turnir, jahon chempionatlari va konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy baxt, yangi yutuq va zafarlar yor bo‘lsin!

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

## ONALAR VA BOLALAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH, AHOLINING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash borasida keng qamrovli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2017 — 2022-yillarda onalar o‘limi ko‘rsatkichi **1,5 baravarga**, go‘daklar o‘limi esa **1,3 baravarga** kamayishiga erishildi.

**Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik** kasalliklarga chalingan bolalarni bepul dori vositalari, tibbiy buyumlar va maxsus oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash joriy etilib, ularga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish ko‘lami kengaytirildi.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida **bolalar anesteziologiya-reanimatsiya bo‘limlari** hamda kechayu kunduz shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatuvchi pediatriya postlari, shuningdek, poliklinikalarda **bolalar bo‘limlari** tashkil etildi.

Barcha “tibbiyot brigadalari” tarkibiga qo‘shimcha pediatriya hamshirasi va doya **shtatlari ajratildi**. Bolalar, homilador va tug‘ish yoshidagi ayollarni zarur **vitamin komplekslari, yod preparati, temirva foliy kislotasi** bilan bepul ta’minlash joriy etildi.

Aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarining samarali boshqaruv tizimini yaratish maqsadida:

1. Sog‘liqni saqlash vazirligining **2023-yil 1-oktabrdan boshlab**:

Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi negizida **Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy tibbiyot markazini** (keyingi o‘rinlarda — Markaz);

hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda “Ona va bola skrining” markazlari negizida Markazning **14 ta hududiy filiallarini** tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi onalar salomatligini muhofaza qilishning **takomillashtirilgan tibbiy profilaktika va patronaj tizimi** joriy qilinsin:

a) **birlamchi tibbiy-sanitariya yordami** muassasalarida “tibbiyot brigadalari”:

o‘zlariga biriktirilgan hududlarda homilador ayollarni aniqlaydi, ularni hisobga olish va davriy tibbiy ko‘rikdan o‘tishini tashkil etadi;

tuman (shahar) ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarining “Ayollar maslahatxonasi” bo‘limi bilan birgalikda homilador ayollar holatini **doimiy monitoring** qilib boradi hamda xavf omillari aniqlanganda Markazning hududiy filiallariga yuboradi;

(Davomi 2-betda).

**Konferensiya**




## Samarqand deklaratsiyasi: DOLZARB MASALA YECHIMIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

*Samarqand shahrida 7-8-sentabr kunlari Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti — FAO texnik ko‘magida Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.*

Nufuzli anjumanning ikkinchi kuni O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi investitsiya forumi bilan boshlandi. Unda 26 davlatdan 100 ga yaqin kompaniya vakillari qatnashdi.

Tadbirda keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, agrar tarmoqni yanada rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish, aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar, hayotga tatbiq etilayotgan istiqbolli loyihalar, kelgusi rejalar haqida mehmonlarga batafsil ma’lumot berildi. Ayniqsa, mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi salohiyati namoyish etilgan taqdimot yig‘ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

2

**Biz va jahon**

## Yangi O‘zbekistonning AQSH bilan mustahkamlanib borayotgan strategik sherikligi

### MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK, XAVFSIZLIK VA FAROVONLIKNI TA’MINLASHGA XIZMAT QILMOQDA

*Mamlakatimizning AQShdagi elchisi Furqat Sidiqovning “The Diplomat” onlayn nashrida “O‘zbekistonning islohot dasturi: AQSh bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlovchi katalizator. O‘zbekiston dinamik mintaqadagi Amerikaning asosiy hamkori” sarlavhali maqolasi e’lon qilindi.*

*Maqolada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2016-yildan buyon demokratiya, inson huquqlari va bozor siyosati tamoyillarini o‘zida mujassam etgan ma’rifat va taraqqiyotga yo‘naltirilgan yangi O‘zbekistonni barpo qilar ekan,mamlakat ulkan o‘zgarishlarni boshdan kechirayotgani qayd etilgan.*

2

**Sessiya**

## VAKILLIK ORGANLARINING SAMARALI FAOLIYATI — ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI KAFOLATI

*Surxondaryo viloyatining Jarqo‘rg‘on tumanida xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tumani Kengashining navbatdagi sessiyasi bo‘lib o‘tdi.*

*Unda deputatlar tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlash borasida bajarilayotgan ishlar samaradorligini oshirish hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktikasini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari muhokama qilindi.*

*Mazkur masalalar yuzasidan Jarqo‘rg‘on tumani hokimi E. Avazovning, shuningdek, -Jarqo‘rg‘on tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A. Berdinazarovning axborotlari eshitildi.*

3

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORI

# ONALAR VA BOLALAR SALOMATLIGINI MUHOFAZA QILISH, AHOLINING REPRODUKTIV SALOMATLIGINI MUSTAHKAMLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

tug‘uruqdan keyingi davrda ona va bolaning **davriy patronajini** olib boradi hamda **istalmagan homiladorlikning** oldini olish choralarini ko‘radi;

reproduktiv yoshdagi aholi va homilador ayollar o‘rtasida tibbiy madaniyat, kasalliklar profilaktikasi va sog‘lom oilani rejalashtirish bo‘yicha **targ‘ibot ishlarini** olib boradi;

b) Markazning **Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi** hududiy filiallari:

**xavf omillari aniqlangan ayollarni** tibbiy tekshiruvdan o‘tkazadi, ularni davolaydi hamda zarur hollarda respublika darajasidagi tibbiyot muassasalariga yo‘naltiradi;

**nikohlanuvchilar, homilador** va **tug‘ish yoshidagi ayollar** hamda **chaqaloqlarni molekulyar tibbiy-genetik tekshiruvlardan** o‘tkazadi;

irsiy kasalliklar aniqlangan bolalarni **maxsus dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari** bilan ta’minlaydi;

**sog‘lom oilani rejalashtirish hamda istalmagan homiladorlikning oldini olish**chora-tadbirlarini amalga oshiradi;

v) **Respublika perinatal markazi**:

erta tug‘uruq xavfi bo‘lgan homiladorlarga, shuningdek, muddatiga yetmasdan (22 — 28 haftalik) tug‘ilgan chaqaloqlarga barcha turdagi tibbiy xizmatlar ko‘rsatadi;

alohida tibbiy ko‘rsatmalarga asosan homiladorlar va chaqaloqlarga Markazning hududiy filiallarida konsultativ yordam beradi hamda zarur hollarda ularga tibbiy statsionar yordam ko‘rsatadi;

g) **Markaz**:

respublika, hududiy tibbiyot muassasalari hamda tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarida homilador ayollar va yangi tug‘ilgan bolalar skriningi, shuningdek, reproduktiv yoshdagi aholi orasida ekstragenital, tug‘ma va irsiy kasalliklar profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va reabilitatsiyasi bo‘yicha **ixtisoslashtirilgan hamda yuqori texnologik diagnostika va davolash amaliyotlarini** joriy etadi;

**akusherlik-ginekologiya**, tibbiy-genetik maslahat, sog‘lom oilani rejalashtirish, molekulyar-genetik tekshiruv, plastik va estetik ginekologiya, yordamchi reproduktiv texnologiyalar xizmatlarini tashkil etadi va ushbu yo‘nalishdagi ishlarni muvofiqlashtiradi;

reproduktiv yoshdagi aholi, homilador ayollar va yangi tug‘ilgan bolalarga malakali tibbiy xizmat ko‘rsata oladigan **kadrlar tayyorlash hamda qayta tayyorlashda ishtirok etadi**;

reproduktiv yoshdagi aholi, homilador ayollar, yangi tug‘ilgan bolalar kasalliklari bo‘yicha **fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanish** va **tadqiqotlar olib borish**, ularning natijalarini keng joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi;

o‘smirlar orasida **reproduktiv a’zolar patologiyasining** oldini olish bo‘yicha tibbiy-profilaktika tadbirlarini tashkil etadi;

xorijiy ilmiy-tadqiqot tibbiyot markazlari, klinikalar va ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda qo‘shma ilmiy loyihalarni amalga oshiradi;

**sog‘lom oilani shakllantirish**, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilishda **ilg‘or usullar va texnologiyalarni yo‘lga qo‘yish**, tug‘ma hamda irsiy kasalliklarni erta prenatal va neonatal davrda aniqlash, **bolalar o‘limi va tug‘ma nogironlikning oldini olish choralarini ko‘radi**.

Sog‘liqni saqlash vazirligi **2023-yil 1-oktabrdan boshlab** birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari mutaxassislarini joriy etilayotgan yangi tizim bo‘yicha o‘qitishni tashkil qilsin.

3. Belgilansinki:

a) Markaz Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi, Respublika “Ona va bola skrining” markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining;

Markazning hududiy filiallari tegishincha hududiy perinatal, aholi reproduktiv salomatligi hamda “Ona va bola skrining” markazlarining barcha huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

b) Markaz va uning hududiy filiallari tug‘uruqqa ko‘maklashish sohasidagi tibbiyot muassasalari faoliyatiga uslubiy jihatdan rahbarlik qiladi;

v) yangi tashkil etilayotgan Markaz tarkibidagi aholi reproduktiv salomatligi va skrining xizmatiga Respublika aholi reproduktiv salomatligi markazi hamda Respublika “Ona va bola skrining” markazi uchun amalda belgilangan moliyalashtirish tartibi saqlab qolinadi;

g) Markazning elektron navbat asosida davolanishga yo‘naltiriladigan va imtiyozli toifaga kiruvchi bemorlarni davolash xarajatlari Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali qoplab beriladi.

4. Quyidagilar:

Onalar va bolalar hamda aholi reproduktiv salomatligini muhofaza qilish xizmatini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi 1-ilovaga muvofiq;

2023 — 2027-yillarda bolalarda tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2023 — 2027-yillarda tug‘uruq komplekslarida qo‘shimcha kiritiladigan tug‘uruq o‘rinlari soni 3-ilovaga muvofiq;

Hududiy tibbiyot muassasalari uchun xarid qilinishi rejalashtirilgan tibbiy jihozlar taqsimoti 4, 4a — 4o ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

5. Hududlarda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari dasturini amalga oshirish bo‘yicha alohida “yo‘l xaritalari” tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlariga “yo‘l xaritalari”da belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali ijro etish yuzasidan shaxsiy mas’uliyat yuklansin.

6. Sog‘liqni saqlash vazirligi **2024-yil 1-sentabrga qadar** Markazda zamonaviy hamda xalqaro talablarga javob beradigan eng ilg‘or diagnostika va davolash standartlarini amaliyotga joriy etib, **yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullarini** yo‘lga qo‘ysin.

7. Belgilab qo‘yilsinki:

Markaz yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullarini qo‘llash bo‘yicha zamonaviy klinik protokollar va standartlar ishlab chiqadi hamda ushbu yo‘nalishdagi barcha tibbiyot tashkilotlari faoliyatini uslubiy jihatdan muvofiqlashtiradi;

2024-yil 1-oktabrdan boshlab **har yili 100 tagacha imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga** davlat va nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullari muvaffaqiyatli qo‘llanganda ushbu amaliyotni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi orqali qoplab beriladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi uch oy muddatda bepushtlik sababli farzandsiz bo‘lgan oilalarga, shu jumladan, imtiyozli toifaga kiruvchi shaxslarga nisbatan yordamchi reproduktiv texnologiyalar usullarini qo‘llash tartibini Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

8. Sog‘liqni saqlash vazirligi O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda sog‘lom oilani shakllantirish, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, tug‘ma hamda irsiy kasalliklarni erta prenatal va neonatal davrda aniqlash, bolalar o‘limi va tug‘ma nogironlikni kamaytirish, tug‘ma va irsiy kasalliklarga chalingan bolalar tug‘ilishining oldini olish ahamiyati va zarurati to‘g‘risida aholi orasida keng tushuntirish ishlarini tashkil etish choralarini ko‘rsin.

9. Quyidagilar **2026-yil 1-yanvarga qadar** bojxona bojidan ozod qilinsin:

ushbu qarorga 1 va 2-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan dasturlar doirasida Sog‘liqni saqlash vazirligi va “Sog‘lom avlod uchun” hukumatga qarashli bo‘lmagan xalqaro xayriya fondi tomonidan O‘zbekistonda ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan tartibda tasdiqlangan ro‘yxat bo‘yicha chetdan olib kiriladigan yuqori texnologik diagnostika tibbiyot uskunalari, butlovchi buyumlar, reagentlar, zarur materiallar, dori vositalari va bolalar uchun maxsus oziq-ovqat mahsulotlari;

fenilketonuriyaga chalingan bolalar uchun O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan maxsus oziq-ovqat mahsulotlari.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 5-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

11. Sog‘liqni saqlash vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

12. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib sog‘liqni saqlash vaziri A.Sh.Inoyatov hamda sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari I.E. Basitxanova belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti** **Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2023-yil 8-sentabr

# Yangi O‘zbekistonning AQSh bilan mustahkamlanib borayotgan strategik sherikligi

## MARKAZIY OSIYODA TINCHLIK, XAVFSIZLIK VA FAROVONLIKNI TA’MINLASHGA XIZMAT QILMOQDA

1

“Davom etayotgan o‘zgarishlar oson kechmadi, biroq 2016-yildan buyon O‘zbekistonda yangilangan Konstitutsiya va diniy erkinlik to‘g‘risida yangi qonun qabul qilindi, oilaviy zo‘ravonlikka jinoiy javobgarlik belgilandi, iqtisodiy rivojlanishga e’tibor kuchaydi, shuningdek, xususiy mulk himoyasini ta’minlash bo‘yicha katta sa’y-harakatlar va boshqa ko‘plab islohotlar amalga oshirildi, — deb yozgan O‘zbekiston elchisi. — Ushbu muhim o‘zgarishlar nafaqat mamlakatning ichki manzarasini yaxshi tomonga o‘zgartirdi, balki uning asosiy ittifoqchilari va hamkorlari, xususan, Qo‘shma Shtatlar bilan muhim munosabatlarini mustahkamladi”.

Nashrda, yangi O‘zbekiston shakllanishda davom etar ekan, Jo Bayden ma’muriyati yaqin va keng qamrovli strategik hamkorlikni ta’minlagan demokratik o‘zgarishlarga va bozor islohotlariga qaratilgan ushbu turkum o‘zgarishlarni olqishlagani va qo‘llab-quvvatlaganiga alohida e’tibor qaratilgan.

Muallif shu o‘rinda AQSh Davlat kotibi Entoni Blinkenning shu yil mart oyida O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida aytgan quyidagi so‘zlaridan iqtibos keltirgan: “Biz Prezident Mirziyoyevning islohotlar dasturini to‘liq amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash orqali hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirmoqdamiz. O‘zbekistonning mehnat huquqi bo‘yicha erishgan yutuqlari bu kun tartibi naqadar o‘zgaruvchan bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi”.

Elchi, shuningdek, Prezident Jo Baydenning 2015-yilda Samarqandda ilk bor o‘z faoliyatini boshlagan va davlat rahbarlari darajasiga chiqqan tarixiy “C5+1” sammiti oldidan mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevga yo‘llagan maktubini amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi munosabatlar chuqurlashib borayotganining dalili sifatida ko‘rish mumkinligini ta’kidlagan.

“Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston va AQSh o‘rtasidagi hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, — deya qayd etadi elchi Furqat Sidiqov. — Yillik siyosiy maslahatlashuvlar yaqin va mustahkam hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Strategik sheriklik muloqoti darajasiga ko‘tarildi”.

AQSh bilan aloqalarimiz Kongressda ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil may oyida amalga oshirgan davlat tashrifidan so‘ng tashkil etilgan AQSh Kongressi huzuridagi “O‘zbekiston bo‘yicha kokus” sezilarli darajada kengaydi va birgina joriy yilning o‘zida O‘zbekiston parlamentining 10 dan ortiq delegatsiyasi okeanortiga tashrif buyurdi.

Ushbu maqolada 2016-yildan buyon O‘zbekistonda inson huquqlari va mehnat huquqlarini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar islohotlarning asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib qolishi uchun tinimsiz mehnat qilinayotgani ham qalamga olingan.

“Mamlakatimizda ushbu sohada aql-bovar qilmas taraqqiyotga erishildi. Masalan, “Cotton Campaign” xalqaro koalitsiyasi o‘zbek paxtasiga nisbatan o‘n yillik boykotini bekor qildi. Ushbu tarixiy qadam mamlakat ichida to‘qimachilik sanoatining o‘sishiga yo‘l ochmoqda va AQShning nomdor brendlari va chakana sotuvchilari bilan hamkorlikni rivojlantirmoqda. O‘zbekistonda bolalar mehnatiga va majburiy mehnatga to‘liq barham berilishi mamlakat va Markaziy Osiyoni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar dasturining boshlanishi xolos”, deb yozgan diplomat.

Shuningdek, nashrda yangi O‘zbekistondagi qonun ustuvorligi bilan qo‘llab-quvvatlanadigan biznes uchun qulay muhitni yaratishga qaratilgan sa’y-harakatlar AQSh bilan savdo va sarmoya hajmining oshishiga xizmat qilayotgani qayd etilgan.

“O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Amerika kompaniyalari soni so‘nggi olti yil ichida ikki baravarga ko‘paydi, AQSh bilan umumiy tovar va xizmatlar savdosi hajmi bir vaqtning o‘zida uch baravarga oshdi, — deya ta’kidlagan muallif. — Darhaqiqat, AQShning mashhur “Caterpillar”, “John Deere”, “CNH Industrial”, “General Electric”, “Hilton”, “and Delphos International” kabi kompaniyalari O‘zbekistondagi investitsiya hajmini oshirdi. “Air Products” kompaniyasi esa 1 milliard dollarlik sarmoyasi bilan Qashqadaryo viloyatidagi tabiiy gazni sintetik gazga qayta ishlash zavodiga kirib keldi”.

Iqtisodiy islohotlar biznes aloqalarini qanday mustahkamlayotganiga yana bir ajoyib misol — IT-sektori, deyiladi maqolada.

“Yangi O‘zbekistonning AQSh bilan mustahkamlanib borayotgan strategik sherikligi Markaziy Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va farovonlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu dinamik munosabatlar ko‘proq e’tiborga loyiq va biz birgalikda ishlashimiz kerakligini eslatib turadi”, deb yozilgan “The Diplomat”da e’lon qilingan maqola xulosasida.

**“Dunyo” AA.**
Vashington

Samarqand deklaratsiyasi:

# DOLZARB MASALA YECHIMIDA YANGICHA YONDASHUVLAR

1

FAO bosh direktori Syuy Dun’yuy anjuman yuksak saviyada o‘tgani, soha rivoji uchun juda muhim bo‘lgan ko‘plab foydali taklif, tashabbuslar bildirilganini yana bir bor e’tirof etdi. Eng muhimi, Samarqand deklaratsiyasi FAO faoliyatida o‘ta muhim voqelikka aylanganiga urg‘u berdi.

Investitsiya forumining yalpi yig‘ilishidan so‘ng “V2V” va “G2B” uchrashuvlari bo‘lib o‘tdi. Dunyoning turli qit’alaridan, 30 ga yaqin davlatlardan yurtimizga kelgan ishbilarmon doiralar vakillari, yetakchi kompaniyalar mas’ul xodimlariga boshqa mamlakatlardan tashrif buyurgan hamkasblari bilan muloqot qilish, o‘zaro manfaatli kelishuvlarga erishish imkoni taqdim qilindi. Anjuman yakunida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya, grant va xalqaro moliya institutlari mablag‘ini jalb qilish, savdo shartnomalari ko‘rinishida ko‘plab kelishuvlarga erishildi, hujjatlar imzolandi.

“Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha tadqiqotlar va innovatsiyalar” mavzuidagi forumda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta’sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash va boshqa qator masalalar bo‘yicha ilmiy xulosalar, fikr-mulohazalar bildirildi.

Kunning ikkinchi yarmida ham bir qator tadbirlar uyushtirildi. Xususan, konferensiya qatnashchilari Samarqand viloyatidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati bilan tanishdi.

Ko‘hna va hamisha navqiron kentning qadimiy obidalari, osori-atiqalari bo‘ylab sayohat anjuman qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi.

### So‘z — anjuman ishtirokchilariga

**Takko NDIAYYE,
FAOning qishloqni inklyuziv o‘zgartirish va gender tengligi bo‘limining guruh rahbari:**

— Konferensiyada suv resurslaridan foydalanishdagi muammolar, iqlim bilan bog‘liq salbiy o‘zgarishlar kabi muhim mavzular qamrab olinib, birgalikda oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga moliyaviy va xavfsizlik nuqtai nazaridan nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosda muqobil yechim izladik. Va anjumanda iqlim o‘zgarishlarining oziq-ovqat mahsulotlariga ta’siri va shu kabi asosiy muammolarga xalqaro miqyosda qanday omillar munosib yechim bo‘la olishiga chuqur e’tibor qaratgan holda muzokaralar olib borib, yuqori natijalarga erishdik. Yakunda yuqorida aytilgan muammolar ustida birgalikda ishlash va ushbu masalalarni hal etishga qaratilgan Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi.

O‘zbekiston — Osiyo mintaqasidagi muhim mamlakatlardan biri. O‘zbekiston iqlimida yalpi ichki mahsulotlarning qishloq xo‘jaligidagi o‘rni beqiyosdir, shu nuqtai nazardan, mintaqadagi oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘plab Yevropa va boshqa davlatlarga bo‘lgan yuqori darajadagi eksport ehtiyojining mavjudligini ham buning yaqqol misoli sifatida ko‘rishimiz mumkin.



Hasan PAYDOYEV olgan suratlar.

**Trayan DIMKOVSKI,
Shimoliy Makedoniya Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va suv xo‘jaligi vazirligining qishloq taraqqiyoti bo‘yicha davlat maslahatchisi:**

— Konferensiya sohadagi amaliyotlarni muhokama qilish uchun katta imkoniyat yaratdi. Munozara va muhokamalardan ko‘zlangan asosiy maqsad — davlatlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ochlikni bartaraf etish borasida olib borilayotgan ishlar bilan tanishish, tajriba almashish va asosiy masalalarga yechim topishdir.

Bilamizki, oziq-ovqat xavfsizligi barcha davlatlar uchun, xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu o‘rinda Markaziy Osiyo mintaqasidan ham moliyaviy ko‘mak olishni ko‘zda tutgan holda qishloq xo‘jaligidagi sut, pishloq, tuxum, go‘sht va shu singari oliy navli mahsulotlarni yetishtirish sifatini oshirish maqsadida yuqori texnologiyalarni olib kirish hamda tizimda samarador uslublarni qo‘llash rejalashtirilgan.

Shuningdek, konferensiya orqali sohada faoliyat ko‘rsatayotgan bir qator olimlar bilan aloqa o‘rnatgan holda fikr almashishga muvaffaq bo‘ldik.

**Abdulaziz YO‘LDOSHYEV
(“Xalq so‘zi”).**

QADRIYAT

# MARDLIK VA JASORAT BAHSI

*Qadim va navqiron Xiva yana bir xalqaro anjumanga mezbonlik qilmoqda. Kecha ko‘hna Ichan qal’a majmuasida Xorazm viloyati hokimligi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi, Etnosport assotsiatsiyasi hamkorligida o‘tkazilayotgan Xalqaro etnosport festivali ochildi.*

Ichan qal’aning “Ota darvoza”sidan jarchilar chaqirig‘i, karnay-surnay navolari yangradi. Qal’aning bayramona bezatilgan ko‘chalari bo‘ylab folklor etnografik jamoalarning chiqishlari, xalq hunarmandchiligi buyumlari ko‘rgazmalari tashkil etilgani mehmonlarning ajib hayratiga sazovor bo‘ldi.

Shundan so‘ng festival doirasida belbog‘li kurash bo‘yicha xalqaro turnir, o‘zbek jang san’ati, mas-restling, bahodirlar o‘yini va tosh ko‘tarish bo‘yicha jahon chempionatlari o‘tkazildi. Kamondan otish, qushlar ovi hamda ot sporti musobaqalarini tomoshabinlar katta qiziqish bilan kuzatib bordi.

Bundan tashqari, qovun sayli, osh pishirish bo‘yicha ko‘rik-tanlov va boshqa turli ko‘ngilochar tomoshalar uyushtirildi.

Dunyoning 60 dan ortiq davlatlaridan 2 ming nafarga yaqin xorijlik va mahalliy sportchilar ishtirok etayotgani mazkur festival doirasida Butunjahon etnosport konfederatsiyasining “Meros bilan bog‘langan, etnosport bilan birlashgan” shiori ostidagi sammiti, shuningdek, Ichan qal’a hududida teatrlashtirilgan konsert dasturi tashkil qilindi.

## So‘z — xalqaro festival qatnashchilariga

**Sudesh KUMAR,
Hindiston jang san’ati federatsiyasi prezidenti:**

— Etnosport festivalini o‘tkazish uchun aynan Xiva shahri tanlab olingani bejiz emas, albatta. Chunki bu qadim shahar o‘tmishda nafaqat ilm-fan va madaniyat, balki xalq o‘yinlari hamda milliy sport turlari rivoj topgan markazlardan biri sanalgan.

Al-Xorazmiy, Beruniy kabi dunyo tan olgan buyuk siymolarga beshik bo‘lgan bu tabarruk zaminda nomi afsonalarga aylangan Jaloliddin Manguberdi kabi ulug‘ sarkardalar, hind tuprog‘ida kurash tushib dovruq qozongan Pahlavon Mahmud kabi bahodirlar yetishib chiqqan.

Festival davomida ajdodlar an’analari izchil davom etib, yurtingiz yoshlari orasidan zabardast hamda abjir pahlavonlar, jang san’ati ustalari yetishib chiqayotganiga guvoh bo‘ldim. Tashkilotchilarga samimiy mehmondo‘stlik uchun Hindiston delegatsiyasi nomidan minnatdorlik bildiraman.

**Innokentiy GRIGORYEV,
musobaqa bosh hakami (Rossiya):**

— Festivalga yuqori darajada tayyorgarlik ko‘rilganini alohida e’tirof etmoqchiman. Ayniqsa, musobaqalarni o‘tkazish uchun qadimiy qal’aning tarixiy maydonlari tanlab olingani jarayonlarga o‘zgacha joziba baxsh etdi.

Ushbu xalqaro festival olis tarix va bugungi zamon nafasini, turli qadriyat hamda an’analarni o‘zida yaqqol namoyon etadigan, dillarni dillarga, ellarni ellarga birlashtiradigan chinakam do‘stlik va hamkorlik anjumaniga aylandi.

Aminmanki, dunyoda tinchlik va hamjihatlikni, mardlik va jasoratni targ‘ib etadigan bu festivalning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tibori yildan-yilga ortib boraveradi.

**Muhammad ASEM,
festival ishtirokchisi (Pokiston):**

— O‘zbekistonda oldin ikki marotaba bo‘lganman. Xivaga esa birinchi marta kelishim. Bu qadimiy shaharning osmono‘par minoralari, tarixiy obidalari meni hayratga soldi.

Umuman, festivaldan olgan taassurotlarim bir olam.

Men mas-restling musobaqalarida ishtirok etaman. Sportning ushbu turi bo‘yicha bellashish uchun dunyoning 18 ta davlatidan ishtirokchilar kelgan. Barcha sportchilarga omad tilayman.

**Botirjon SAIDOV,
Xorazm viloyati hokimi o‘rinbosari:**

— Mazkur xalqaro festival mamlakatimiz Prezidentining 2022-yil 25-maydagi “Etnosport turlarini ommalashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori asosida o‘tkazilmoqda.

Asosiy maqsadi milliy sport turlari hamda xalq o‘yinlarini targ‘ib qilish va ommalashtirish, bolalar hamda o‘smirlarni ularga keng jalb etish, xalqaro aloqalarni kuchaytirishdan iborat bo‘lgan ushbu festival Xivada har ikki yilda bir marotaba tashkil qilinadi.

Ishonamizki, festival yoshlarning etnosport turlariga qiziqishini oshirish barobarida vohamizning turizm salohiyatini dunyo bo‘ylab keng tarQib etishga yordam beradi.

**Odilbek ODAMBOYEV
(“Xalq so‘zi”).**

Oliy Majlis Senatida



# MUROJAATLAR HAL ETILMOQDA

*Oliy Majlis Senatida aholini o‘ylantirayotgan masalalarni hal etish maqsadida muntazam ravishda fuqarolar qabullari tashkil qilib kelinmoqda.*

*Shunday qabullarning navbatdagisini Senatning Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator Gulnora Ma’rufova o‘tkazdi.*

Ochiq muloqot tarzida uyushtirilgan tadbirda Surxondaryo, Andijon, Navoiy, Farg‘ona, Buxoro viloyatlari va Toshkent shahridan kelgan 40 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari ko‘rib chiqildi. Ularning aksariyati ishga joylashish, nafaqa ta’minoti, sudning hal qiluv qarorlari ustidan shikoyat, shuningdek, moddiy yordam, uy-joy bilan ta’minlash, tadbirkorlik faoliyati va boshqa masalalar bilan bog‘liq.

Qabul davomida senatorga Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidan kelgan O‘.Abdullayev tadbirkorlik faoliyatini boshlashda amaliy yordam so‘rab murojaat qildi. Ushbu masala yechimi yuzasidan viloyat hokimligining mas’ul rahbarlariga tegishli tavsiyalar berildi.

Navoiy viloyatining Navbahor tumanidan kelgan fuqaro U. Bekmurodova esa uy ta’miri uchun moddiy yordam so‘radi. Ushbu masala bo‘yicha senator tegishli idoralar mutasaddilari bilan bog‘lanib, murojaatni ijobiy hal etish bo‘yicha ko‘rsatma berdi. Shuningdek, muddat talab qiladigan murojaatlar bo‘yicha mas’ullar belgilanib, ularning o‘z vaqtida ijrosini ta’minlash yuzasidan mutasaddilar zimmasiga aniq vazifalar yuklandi.

Shu bilan birga, 10 nafar fuqaroning murojaati o‘rnatilgan tartibda o‘rganilishi aytilib, yana shuncha fuqaroga huquqiy tushuntirish hamda maslahatlar berildi. Murojaatlarning o‘ntasi joyida hal qilindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# EKOLOGIK BARQARORLIK UCHUN UMUMIY SA’Y-HARAKAT ZARUR

*O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida “Ekologik muammolar, iqlim o‘zgarishi hamda suv resurslari taqchilligi” mavzuida ilmiy-amaliy muloqot o‘tkazildi.*

*Tadbirda Senatning Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi B. Alixonov ishtirok etdi.*

**Muloqot**

Ta’kidlanganidek, iqlimning keskin o‘zgarishi, sahrolarning kengayishi, cho‘llanish va yer degradatsiyasi, maishiy hamda sanoat chiqindilarining tobora ortib borishi, atmosferaning zararlanishi, suv resurslarining ifloslanishi va tanqisligi, o‘rmonlar hamda bioxilmaxillikning qisqarishi insoniyat uchun nihoyatda dolzarb global ekologik muammolarga aylandi.

Boz ustiga, aholi sonining o‘sib borishi, sanoat va transportning rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti insoniyatning biosferaga ta’sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, u yoki bu darajadagi ekologik muammolar kelib chiqishiga sabab bo‘layotir.

Ushbu muammolar mamlakatimiz uchun ham xosligidan kelib chiqib, yurtimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik barqarorlikni ta’minlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Ona tabiatni saqlash, aholi salomatligini himoya qilish masalalari sohasida o‘ziga xos qonunchilik bazasi yaratildi. Global ekologik muammolar keskinlashgan sharoitda mamlakatimizda atrof-muhit muhofazasi va ekologik vaziyatni sog‘lomlashtirishga qaratilgan qonunlar, qonunosti hujjatlari, davlat dasturlarining qabul qilinishi va ularning ijrosi bo‘yicha izchil ishlar olib borilayotgani, bu ishlarda keng jamoatchilikning faol ishtiroki beqiyos ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasida aholi hayoti va salomatlik darajasini yaxshilashning zarur sharti sifatida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha kompleks choralar aniq belgilandi.

Aytish mumkinki, mamlakatimizda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilishga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. Sohani boshqarish va tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirildi. Yangicha ekologik tafakkur, ekologik dunyoqarash shakllanib, aholining ekologik madaniyati yuksalmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta’minlash sohasida qator vazifalar turganligi alohida qayd etildi.

Jumladan, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, suvning isrof bo‘lishi va ortiqcha suv iste’molining oldini olish, soha va tarmoqlarda suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llashni rag‘batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish sohasini takomillashtirish, chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etishni kengaytirish, atmosfera havosining ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik, bioxilmaxillikni, daraxtlarni asrash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish zarurligi aytildi.

Tadbirda, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida milliy qonunchilik bazasini qayta ko‘rib chiqish lozimligi xususida so‘z yuritildi. Bu borada prokuratura organlari oldida dolzarb masalalar turganligi ta’kidlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

Qisqa satrlarda

# OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QO‘MITALARIDA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga respublika ijro etuvchi hokimiyati organlarining nomlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan ba’zi qonun hujjatlariga ma’muriy islohotlar doirasida ayrim respublika ijro etuvchi hokimiyati organlarining rasmiy nomlarini muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritish taklif etilmoqda.

* * *

Parlament quyi palatasining Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining navbatdagi yig‘ilishida “Boshlang‘ich va umumiy o‘rta ta’limni, umumiy qamrovni saqlab qolgan holda o‘qitishning dolzarb va samarali natijalariga erishishni ta’minlaydigan yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, shuningdek, maktablarda o‘quvchi o‘rnini ko‘paytirish, o‘qituvchilar malakasini oshirish va ularga munosib sharoit yaratish borasidagi ustuvor vazifalar ijrosi to‘g‘risida”gi masala yuzasidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining axboroti eshitildi.



* * *

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijara munosabatlaridagi huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash hamda pensiyalarni tayinlash va to‘lash tartibini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan ishchi guruh yig‘ilishi o‘tkazildi.

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Parlament axborot markazi.**

# SOG‘LOM HAYOT ASOSI

*Shu yil 7-8-sentabr kunlari Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya oziq-ovqat xavfsizligi masalasi g‘oyat dolzarb ahamiyatga egaligini ko‘rsatdi.*

**Munosabat**

Davlatimiz rahbarining mazkur anjuman ishtirokchilariga yo‘llagan murojaatida so‘nggi o‘n yillarda “yashil inqilob” va innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi tufayli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshgani, tobora ko‘payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashda sezilarli yutuqlarga erishilgani qayd etildi. Biroq keyingi paytda global iqlim o‘zgarishlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimiga investitsiya hajmi kamayishi vaziyatni og‘irlashtirayotgani, bu esa barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirayotgani ta’kidlab o‘tildi.

O‘z navbatida, xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining “yashil” texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqirdi.

Davlatimiz rahbari o‘z murojaatida, shuningdek, buyuk alloma Ibn Sino bobomiz o‘rta asrlardayoq aytgan “Kimki uzoq va sog‘lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e’tibor qaratsin”, degan so‘zlarini iqtibos sifatida keltirdi.

Darhaqiqat, bu juda dolzarb masala. Binobarin, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, inson salomatligini belgilovchi omillarning 50 foizi uning ovqatlanishi va hayot tarziga bog‘liq. Ayniqsa, kelajak avlod tarbiyalanayotgan maktab oshxonalarida farzandlarimizning to‘g‘ri ovqatlanishiga e’tibor berish har birimizning vazifamiz.

Shu munosabat bilan mamlakatimizda Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindi. Unga ko‘ra, 2019-yilda 197 ta, 2020-yilda 341 ta, 2021-yilda 346 ta xalqaro “ISO” va “CODEX ALIMENTARIUS” standartlari qabul qilindi. Bundan anglashiladiki, Prezident qarorlari hozirgi kunda o‘z amaliy natijalarini bermoqda.

Konferensiyaning eng muhim tomoni — global oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida deklaratsiya qabul qilinganidir. Aytish joiz, ushbu hujjat xalqaro hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Shu bilan birga, xalqaro konferensiya yakunlari yuzasidan erishilgan kelishuvlarni mustahkamlaydi.

**Muqaddas TIRKASHEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

Senator va hayot

Hududlar infratuzilmasi:

# VAZIFALAR IJROSI NAZORATDA

*Davlatimiz rahbarining 2022-yil 25-oktabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga asosan yurtimiz mahallalaridagi obyektlarda qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.*

Hududlarda mahallalar infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosini nazorat qilib borish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida Senat a’zolari joylarga chiqib, ichki yo‘llar, ichimlik suvi, elektr energiyasi va gaz ta’minotini yaxshilash, ijtimoiy soha obyektlarini ta’mirlash borasidagi loyihalar ijrosining borishini o‘rganyapti.

Ayni kunlarda Senatning Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari B. Matmuratov boshchiligidagi ishchi guruh Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylarga chiqib, obyektlarda olib borilayotgan ishlarni ko‘zdan kechirdi. Mahalliy aholi bilan muloqot qildi. Jumladan, Bo‘zatov tumanida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Dastlab keng jamoatchilik vakillari ishtirokida “Yangi Mo‘ynoq” nomli kitob-albomning taqdimoti bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlanganidek, ushbu kitob-albomda mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan Mo‘ynoq tumanida o‘tgan qisqa vaqt mobaynida amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, aholi turmush tarzidagi ijobiy o‘zgarishlar o‘z aksini topgan.

Shuningdek, senator tumandagi “Erkindarya” ovul fuqarolar yig‘ini Akeden ovuli hududida barpo etilayotgan 200 o‘rinli sanatoriy hamda 60 o‘ringa mo‘ljallangan maktabgacha ta’lim tashkiloti qurilishi bilan qiziqdi. U yerda tashkiliy masalalarga alohida e’tibor qaratilib, mas’ullarga tegishli taklif va tavsiyalar berildi.

Shundan so‘ng senator tumandagi “Bo‘zatov” ovul fuqarolar yig‘inida yashovchi A. Niyetbekov xonadonida bo‘ldi. Hozirgi kunda ushbu xonadonning ichki qismida homiylar ko‘magida to‘liq ta’mirlash ishlari olib borilyapti.

Senatorlarning hududlardagi o‘rganishlari davom etmoqda.

**“Xalq so‘zi”.**

# VAKILLIK ORGANLARINING SAMARALI FAOLIYATI — ISLOHOTLAR NATIJADORLIGI KAFOLATI

1 Ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda mamlakatimizda aholini ish bilan ta’minlash, tadbirkorlik tashabbuslarini ro‘yobga chiqarishga moliyaviy ko‘maklashish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jarqo‘rg‘on tumanida ham yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish, shu orqali kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tizimli ishlar qilinyapti. Jumladan, aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilishga ustuvor ahamiyat berilib, ishsiz yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilayotir.

Tumanda joriy yilda 31,5 ming nafar aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda band qilish bo‘yicha mahalla kesimida yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlar ishlab chiqilib, tarmoqlar va sohalar kesimida aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha reja-jadval tasdiqlab olingan.

Jumladan, qishloq xo‘jaligi sohasida 21,2 ming nafar, xizmatlar sohasini rivojlantirish hisobiga 6,3 ming, investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 0,9 ming nafar aholi bandligi ta’minlanadi. 2023-yilning yanvar — iyul oylarida 23,1 ming nafar kishi ishga joylashtirilgan.

Sessiyada deputatlar tomonidan yoshlar va xotin-qizlar bandligi talab darajasida emasligi qayd etilib, uni kafolatlashda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, ularning muammolarini bevosita mahallalarda hal qilish bo‘yicha takliflar ilgari surildi.

Qayd etilganidek, tumanda aholining huquq va erkinliklarini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har bir mahalla kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etishda fuqarobay ishlash orqali huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasini ta’minlash va “Xavfsiz hudud” tamoyili asosida ish olib borilmoqda.

Tumandagi 31 mahalla “yashil”, 27 tasi “sariq” hamda 8 tasi “qizil” toifadagi mahallalarga kiritilgan. “Sariq” va “qizil” toifaga tushgan mahallalarda jinoyat hamda huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashish, sodir etilgan jinoyatlarning sabab hamda shart-sharoitlarini aniqlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olinib, “mahalla beshligi” bilan hamkorlikda ish olib borilayotir.

Tumanda huquqbuzarliklarga qarshi kurashish yo‘nalishida tizimli ishlar olib borilayotganiga qaramay jinoyatchilik soni oshgani qayd etilib, ularni bartaraf qilish bo‘yicha takliflar berildi. Va ushbu masala yuzasidan Jarqo‘rg‘on tumani prokurori, mahalla fuqarolar yig‘inlari profilaktika inspektorlarining munosabatlari ham eshitildi.

Sessiya ishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov ishtirok etdi hamda yangi tahrirdagi Konstitutsiya, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining o‘rni va mas’uliyati, shuningdek, Prezidentimizning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, unda ilgari surilgan tashabbuslar, belgilab berilgan ustuvor vazifalarga alohida to‘xtaldi.

Qonunchilik palatasi Spikeri aholi bandligini ta’minlashda “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun talablaridan kelib chiqib ish tashkil etish lozimligi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda ko‘zda tutilgan qoidalarga amal qilinishini ta’minlash zarurligiga e’tibor qaratdi.

Sessiyada muhokama qilingan masalalar bo‘yicha xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.

**Qizlarshoy RAHMATOVA,
Jarqo‘rg‘on tumani Kengashi deputati:**

— Sessiyada Qonunchilik palatasi deputatlari ham ishtirok etgani, quyi palata faoliyati haqida yaqindan tanishganimiz va tajriba almashganimiz, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati haqida keng ma’lumot berilgani ayni muddao bo‘ldi. Sababi, bu kabi omillar, albatta, bizning faoliyatimizga yangicha ruh bag‘ishlaydi, vakillik organlarining samaradorligini oshiradi.

Aytish joiz, o‘tgan davrda tumanda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi bandligini ta’minlash borasida ko‘lamli ishlar amalga oshirilgan, ko‘plab yoshlar va xotin-qizlarning bandligi ta’minlangan. Bunga tuman hokimiyati va tegishli idoralar rahbarlari hisobotlarini muhokama qilish jarayonida amin bo‘ldik.

Albatta, tumanimizda ishga solinmagan imkoniyatlar juda ko‘p. Agar biz ulardan unumli foydalansak, hududda tadbirkorlik subyektlari ko‘payadi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Natijada aholining turmush farovonligi yaxshilanadi. Bugungi sessiya yig‘ilishida bu boradagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

**Rustam DAVLATOV,
Jarqo‘rg‘on tumani Kengashi deputati:**

— Yig‘ilishda huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirokida atroflicha muhokama qilindi. “Mahalla beshligi” va faollar o‘rtasidagi hamkorlik tizimli yo‘lga qo‘yilmagani natijasida oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlar sodir etilgani jiddiy e’tirozlarga sabab bo‘ldi.

Albatta, biz bundan to‘g‘ri xulosa chiqargan holda, mahallalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, yoshlar va ayollar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olishda bor imkoniyatimizni ishga solamiz.

Shuningdek, kelgusida Jarqo‘rg‘on butun respublikada jinoyatchilikdan xoli tumanlardan biriga aylanishi uchun barcha deputatlar o‘z hissamizni qo‘shishga, mahalla faollari, IIB xodimlari bilan hamkorlikda ishlashga kelishib oldik.

# YANGI ISH O‘RINLARI YARATISH E’TIBOR MARKAZIDA

*Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashining navbatdagi sessiyasida deputatlar tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini oshirish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida qilingan ishlar muhokama etildi.*

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan Termiz shahar hokimi hamda shahar ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining axborotlari eshitildi.

Qayd etilganidek, yurtimizda keyingi yillarda aholi bandligini ta’minlash, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilishda qulay shart-sharoitlar yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar qo‘llanyapti. Ayniqsa, Prezidentimiz rahbarligida aholi, yoshlar va xotin-qizlar bandligini kafolatlash, ularni kasb-hunarga o‘rgatish, daromadlarini izchil oshirib borish bo‘yicha tizimli ishlar qilinmoqda.

Bu borada Termiz shahrida ham manzilli ishlar olib borilayotir. Xususan, sohada amalga oshirilgan ishlar natijasida hududda joriy yilning yanvar — avgust oylarida 9819 ta ish o‘rni yaratilgan.

Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida hokim yordamchilari tavsiyanomalari asosida 1207 ta loyihaga 28,8 mlrd. so‘mlik kreditlar ajratilgan. 363 nafar fuqaro kasb-hunar va tadbirkorlik ko‘nikmalariga yo‘naltirilib, “Ishga marhamat” monomarkazi va boshqa nodavlat ta’lim muassasalarida o‘qitilgan. Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan ehtiyojmand 103 nafar xotin-qizga 1 mlrd. 44 mln. so‘m miqdorida imtiyozli kreditlar ajratilgan.

Termiz shahrida davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda jinoyatchilikni jilovlash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida qator amaliy ishlar olib borilmoqda. Shaharda sodir etilayotgan har bir jinoyat mutasaddi idoralar rahbarlari ishtirokida mahallalarda atroflicha muhokama qilinib, oldini olish bo‘yicha zarur choralar ko‘rilyapti. Buning natijasida hududda jinoyatchilik kamayishiga erishilgan. Masalan, 2023-yilning sakkiz oyida sodir etilgan jinoyatlar o‘tgan yildagiga nisbatan 36 taga kamaygan.

Shahar hududida jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda unga qarshi kurashishda shahar va viloyat IIB xodimlari, Milliy gvardiya hamda sohaviy tashkilotlar bilan hamkorlikda tungi guruhlar tashkil etilgani e’tiborga molik. Shu bilan birga, jinoyatlarni jilovlash, huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish borasidagi ishlarni yanada jadallashtirish, hamkorlikni to‘g‘ri va samarali yo‘lga qo‘yish orqali jinoyatlarni tubdan kamaytirish maqsadida kriminogen vaziyat va aholi sonidan kelib chiqqan holda shahardagi barcha mahalla “qizil”, “sariq” va “yashil” toifalarga ajratilgan. Bu orqali “qizil” va “sariq” mahallalarda huquqbuzarlik sodir etilishi yuqori bo‘lgan obyektlar, jinoyat qilishga moyil shaxslar toifaga ajratilib, jinoyatlarni jilovlash bo‘yicha profilaktik tadbirlar olib borilayotir.

Sessiyada, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha belgilangan vazifalar ijrosi yetarli darajada ta’minlanmagani qayd etildi. Mahallalar hududida profilaktika inspektorlarining mas’uliyatini va jinoyatlarni o‘z vaqtida fosh etish borasidagi tadbirlar samaradorligini kuchaytirishga doir takliflar ilgari surildi.

Sessiya ishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri N. Ismoilov so‘zga chiqib, mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning mohiyati va ahamiyatiga alohida to‘xtaldi. Bosh qomusimizda xalqimizning fikri, xohish-irodasi, yoshlar, ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘qituvchilarning huquq va manfaatlari aks etgani, yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar ruhi ifodalangani, undagi normalar fuqarolarning farovon yashashiga, davlatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilishini ta’kidladi.

Jadal islohotlar natijasida hayotimizning barcha sohasida o‘zgarishlar yuz berayotgani, Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan mamlakatimizda inson qadri ulug‘lanayotgani, odamlar turmush darajasi yuksalayotgani ta’kidlandi.

Sessiyada muhokama etilgan masalalar bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilindi.

**Oydin SHAROFUTDINOVA,
Termiz shahar Kengashi deputati:**

— Yig‘ilishda muhim masalalar muhokama qilindi. Unda huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasini ta’minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda aholi bandligiga erishish bo‘yicha joriy yil oxirigacha bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar atroflicha ko‘rib chiqilib, mutasaddi rahbarlarning vazifalari belgilab olindi.

Sessiyada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari ishtirok etgani, ular tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya, undagi normalarning mazmuni, ahamiyati haqida keng ma’lumot berilgani ayni muddao bo‘ldi. Bu, albatta, ish faoliyatimizni yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilishda qo‘l kelishi, shubhasiz.

**Burhon RAHMATULLAYEV,
Termiz shahar Kengashi deputati:**

— Sessiya ishi juda mazmunli, natijador bo‘ldi, desak, aslo mubolag‘a emas. Zero, kun tartibidagi masalalar atroflicha muhokama qilinib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq va maqsadli takliflar ilgari surildi.

Sirasini aytganda, jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquq-tartibot organlarining emas, balki keng jamoatchilikning ham vazifasi bo‘lmog‘i lozim. Ushbu jarayonda huquqbuzarlikning oldini olishda hududlar kesimida ish olib borilib, “mahalla beshligi” faoliyatidan unumli foydalanishimiz kerak. Bu, albatta, o‘z samarasini beradi.

**“Xalq so‘zi”.**

# INSONNI QADRLASH, ODAMLARNI HAYOTDAN ROZI QILISH — BOSH MAQSAD




***Yurt o'zgaryapti. Har qarich yer obodlikka yuz tutyapti. Ko'rimsiz binolar o'rnida baland-baland imoratlar qad rostlayapti. Asfalt ko'rmagan ko'chalar ravon yo'llarga aylanayotir.***

***Odamlar o'zgaryapti. Kecha "Bo'laveradi", "Mening fikrim kimga qiziq", "O'qib shahar olib berarmiding?", "Mashina olish — yetib bo'lmas orzu", "Cho'ntagida biror so'mi yo'q kishi qanday qilib tadbirkor bo'lsin", kabi fikrlar o'rnini bugun "Yurt taqdiri — mening taqdirim", "Kelajakni o'zimiz yaratamiz", "Demak, harakat qilsam — erishaman", "Najot — bilimda", "Tadbirkor bo'lmoqchimisan, mana, davlat ko'magi" qabilidagi sof tushunchalar egalladi.***

***Har qanday davlat, har bir xalq faqat erkin va ozod bo'lgan taqdirdagina o'z hayoti va kelajagini mustaqil barpo etadi. Shukrki, mustaqillik xalqimizga ana shu baxtni — erkin va ozod hayotni berdi, insoniy sha'nimiz, milliy ongimiz, qadr-qimmatimizni tikladi. Har bir fuqaro o'z orzu-umidlariga mos ravishda hayot kechirish, hur yashash baxtiga erishdi. Mamlakatimizdagi keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, zabt etgan barcha marralarimiz eng ulug' ne'mat — istiqlol sharofati, desak, ayni haqiqat.***



## Tahlil

Xullas, mustaqillikning o'tgan 32 yili davomida mamlakatimizda ko'plab islohotlar amalga oshirildi, qishloq va mahallalarimiz qiyofasi tubdan o'zgardi, odamlar hayotida katta burilish bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda kechayotgan islohotlar, tadbirkorlik rivojiga qaratilayotgan e'tibor hayotimizning barcha jabhasida yangilanish va tub o'zgarishlarga zamin hozirladi. Yurtimiz dunyoga ochildi, ulkan salohiyatini jahonga namoyon qilish imkoniga ega bo'ldi. Qolaversa, muhim o'zgarishlar yuz berib, mamlakat iqtisodiyoti rejalashtirilgan sur'atdan ham yuqori rivojlanishda davom etyapti. Nufuzli xalqaro tashkilotlar, dunyo ommaviy axborot vositalari O'zbekiston aholisi daromadlari muttasil oshib borayotgani, mamlakatdagi yangilanishlarni alohida e'tirof etmoqda.

Har bir soha va yo'nalishdagi islohotlar odamlar turmushidagi o'zgarishlar, yuz-ko'zidagi mamnunlik, bugungi kunidan rozilik ifodasi o'laroq hayotimizda o'z aksini topmoqda. Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi kabi nufuzli moliya tashkilotlari O'zbekistonda sezilarli o'sish kutilayotganini prognoz qilayotir. Bunday yuksak marralar inson qadrini ulug'lashga yo'naltirilgan, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida Prezidentimiz rahbarligida kechayotgan izchil islohotlar natijasidir.

E'tiborlisi, bu o'zgarishlar xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilayotgani bilan yana-da ahamiyatli. Keyingi yillarda birgina valyutaning erkin aylanmasi joriy qilingani, soliq yuki keskin kamaytirilib, xususiy biznes qonun himoyasida bo'lishidek ishonchli tizim yaratilgani bozor iqtisodiyoti rivojiga keng yo'l ochib berdi. Shu davrda mulk, xususiy tadbirkorlik, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, korxonalar, investitsiyalar, soliq va bojxona siyosati to'g'risida qabul qilingan qonunlar esa iqtisodiyotni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. Natijada mamlakatimizning qudrati va iqtisodiy salohiyati tobora ortib, YAIMning yillik o'sish sur'ati 6-7 foizdan kam bo'lmayapti. Bu esa pandemiya va dunyodagi qarama-qarshilik tufayli ko'pchilik mamlakatlar, hatto rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti retsessiyani boshidan kechirayotgan bir sharoitda dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biri, deyish mumkin.

Yangi O'zbekiston — yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash, demak. Bu borada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha bajarilgan amaliy ishlarning ko'lami nihoyatda keng. Masalan, tadbirkorlik faoliyatiga aralashishni cheklashga alohida e'tibor qaratilib, 114 ta litsenziya va ruxsatnoma bekor qilingani biznes vakillarining erkin va samarali faoliyat yuritishi uchun keng zamin yaratdi. 33 turdagi faoliyat bo'yicha xabardor qilish tartibi joriy etilib, ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartiblari va ularni berish muddati o'rtacha ikki barobar qisqartirildi. So'nggi uch yilda soliqlar soni 16 tadan 9 taga qisqartirildi. Yana bir hayotiy misol. Yaqin-yaqingacha yurtimizda kadastri yo'q 2,6 million uy-joy egasiga uch karra oshirilgan soliq qo'llanar edi. Shuncha uy-joy egasi tomorqa uchun kredit, subsidiya olish hamda uy-joyini kengaytirishda ipotekadan foydalana olmasdi. Odilona siyosat tufayli bularga barham berildi. Mamlakatimizda kadastri yo'q xonadonlarning muammolari uzil-kesil hal etiladigan bo'ldi. Endi yangi qonun qabul qilinguniga qadar bunday uy-joy egalari uch karra oshirilgan soliq to'lamaydi. Bu esa 2,6 million oilaga quvonch, umid olib kirdi.

Keng ko'lamli va samarali islohotlar natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 mlrd. dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 mlrd. dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksport esa 19 mlrd. dollarga yetdi. Bunday katta natijalar ilgari bo'lmagan. O'zbekiston tarixida ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdori minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqildi. Misol uchun, 2017-yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 mln.dan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trln. so'mga yetdi. Bu raqamlarni aytish oson. Ularning har biri ortida mashaqqatli mehnat turibdi. Chunki inson qadri, insonni e'zozlash — davlatimiz e'tiboridagi eng asosiy masala. Shu maqsadda oxirgi olti yilda mamlakatimiz bo'yicha qariyb 300 mingta yoki avvalgi yillardagiga nisbatan 10 barobar ko'p uy-joylar qurildi.

Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravar oshirish bo'yicha tizimli ishlar bajarildi. Buni kimyo va gaz kimyosi sohalarini rivojlantirish va tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizga yetkazish maqsadida "Ximgrad" AJ (Rossiya) bilan hamkorlikda "Chirchiq" kimyo-industrial texnoparki tashkil etilgani misolida ham ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotni rivojlantirishda tadbirkorlikning o'rni katta. Shuning uchun tadbirkorlarning mulk huquqini himoya qilish doimiy e'tiborda. 2023-yil 1-yanvardan boshlab mikrobiznes uchun aylanmadan olinadigan soliqning amaldagi 4 foizdan 25 foizgacha bo'lgan stavkalari o'rniga yagona 4 foizli soliq stavkasi joriy etildi. Bunda olis hududlardagi va alohida toifadagi tadbirkorlar uchun amaldagi 1 va 2 foizli stavkalar saqlab qolindi. Yoki ular ixtiyoriy ravishda yiliga 20 — 30 mln. so'm to'lasa, buxgalteriya hisobi yuritish va soliq idoralariga hisobot taqdim qilish majburiyatidan ozod etiladigan bo'ldi. Ikkinchi toifa, ya'ni aylanmasi 1 mlrd. so'mdan oshib, umumiy soliq to'lash tartibiga o'tgan korxonalar bir yil davomida foyda solig'ini 2 barobar kam to'laydi. Aytish mumkinki, ushbu imkoniyatlar minglab tadbirkorlarga yengillik yaratdi, faoliyatini kengaytirish, ish o'rinlari yaratish uchun asos bo'lmoqda.

2023-yil 1-yanvardan kichikdan o'rta biznesga o'tgan korxonalar ikki yil davomida foyda solig'ining faqat 50 foizini to'lashi, mulkni sug'urta qilish xarajatlarining 50 foizi davlat hisobidan qoplab berilishi, soddalashtirilgan soliq, moliyaviy va statistika hisobotlari joriy etilishi, davlat xaridlarida 20 foiz kvota o'rnatilib, ushbu xaridlar doirasida ularga oldindan 50 foiz mablag' to'lab berilishi minglab tadbirkorlarni harakatga keltirgani, faollikka chorlagani, shubhasiz.

Investitsiyalar iqtisodiyotning "lokomotivi" hisoblanadi. Investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish ko'plab sohalar, tarmoqlar va hududlarga yangi texnologiyalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib kelishiga xizmat qiladi. Zero, investitsiya har qanday mamlakat iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uning taraqqiyotini ta'minlovchi muhim kapitaldir. Ahamiyatli jihati, investorlar va tadbirkorlar tomonidan mamlakatga investitsiya kiritilishi yurtimizda ko'plab ish o'rinlari ochilishiga turtki bo'ladi. Eng muhimi, zamonaviy bilimlarni o'rganish imkoniyati, umuman, davlatimizning intellektual salohiyatini yana-da oshirish uchun yetarli darajada sharoit yaratiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida huquqiy bazani mustahkamlash, investorlarning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirildiki, bu boradagi ishlar allaqachon ijobiy natija bermoqda. Bu haqda gapirganda, mamlakatimizga investitsiya kiritib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan ishbilarmonlar uchun keng sharoitlar yaratilganini alohida ta'kidlash joiz. Shuningdek, 90 dan ortiq xorijiy davlat fuqarolari O'zbekistonga vizasiz kirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar ustav fondidagi xorijiy sarmoyalar ulushining eng kam miqdori 30 foizdan 15 foizgacha kamaytirildi. Ushbu yo'nalishda investitsiya muhitini yana-da yaxshilash, yuqori texnologiyali zamonaviy loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy ishbilarmonlarni keng jalb qilish maqsadida joriy yilning aprel oyida ikkinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi uyushtirildi. Forumni o'tkazish jarayonida 164 ta bitim va shartnomalar imzolandi. Shartnomalarning umumiy miqdori 11 mlrd. dollarni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, 2022-yilda birinchi investitsiya forumida 7,8 mlrd. dollarlik 105 ta hujjat imzolangan.

Iqtisodiyot taraqqiyoti bevosita investitsiya oqimiga bog'liq. Investitsiya esa hech qachon o'z-o'zidan kirib kelmaydi. Buning uchun infratuzilmani rivojlantirish lozim. Yurtimizda esa bu borada ham huquqiy, ham amaliy jihatdan ko'lamli ishlar bajarilmoqda. So'nggi olti yilda ular hajmi yalpi ichki mahsulotning 30 foizidan oshdi. 2023-yil oxirigacha qariyb 30 mlrd. dollar sarmoya jalb qilish rejalashtirilgan, shundan 25 mlrd. dollar xususiy investitsiyalar bo'lishi ko'zlangan. Jumladan, umumiy qiymati 8 mlrd. dollarlik 300 dan ziyod loyihalar ishga tushiriladi va yana 40 ta yangi yirik loyiha boshlanadi. E'tiborlisi, bularning barchasi zamirida xalqimizning bugungidan-da farovon va baxtli yashashini ta'minlash, inson qadrini ulug'lashdek ezgu maqsad mujassam.

Inson qachon erkinlik, ozodlikning zavqini tuyadi, har bir kunidan rozi bo'lib yashaydi? Qachonki, yurti tinch, ko'ngli xotirjam, tayinli ishi, doimiy daromad manbai bo'lsa. Shu bois bugungi kundagi tarixiy islohotlarning tub mohiyati har bir insonning izzat-hurmati va qadr-qimmatini joyiga qo'yish, aholining farovon yashashi, sifatli ta'lim olishi va tibbiy xizmatdan foydalanishi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratildi. Bu borada salmoqli ishlar qilinib, ijtimoiy adolat tamoyili asosida aholining yordamga muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni kamaytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Kambag'al oilalarga byudjetdan subsidiyalar berilib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, daromad topib ro'zg'orini tebratishiga ko'maklashilmoqda. Ayniqsa, "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari" joriy etilgani ko'p yillik og'riqli masalaning oqilona yechimi bo'ldi. Ushbu tizim iqtisodiyotimizga eng katta tahdid keltiradigan ishsizlik muammosi hal etilishida muhim ahamiyatga ega bo'layotir. Bir paytlar "davlat — jamiyat — inson" tamoyili amalda bo'lgan bo'lsa, bugun bu tamoyil shaklan va mazmunan o'zgardi: "inson — jamiyat — davlat".

Insonning huquq-erkinliklari va manfaatlari oliy qadriyat sifatida belgilanib, amalda unga rioya etila boshlandi. Bugun O'zbekistondagi islohotlar shiddatidan odamning aqli shoshadi. Prezidentimizning xalq roziligiga erishish, kambag'allikni qisqartirish, har bir insonni uy-joyli qilish, insonning qadr topishi uchun bajarayotgan sa'y-harakatlarini hammamiz ko'rib turibmiz. Muhimi, bu boradagi ishlar ortga qaytmas tus oldi.

**Dilshod XOLMATOV,**
**Namangan davlat universiteti prorektori,**
**kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.**

РЕКЛАМА

## TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI OLIY O'QUV YURTIDAN KEYINGI TA'LIM INSTITUTIGA 2024-YIL UCHUN QUYIDAGI IXTISOSLIKLAR BO'YICHA QABUL E'LON QILADI:

### TAYANCH DOKTORANTURA (PhD)

| | | |
|---|---|---|
| 02.00.06 | Yuqori molekulyar birikmalar | 2 o'rin |
| 05.01.08 | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish | 4 o'rin |
| 05.02.03 | Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnika tizimlari | 4 o'rin |
| 05.06.01 | To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi | 3 o'rin |
| 05.06.02 | To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish | 14 o'rin |
| 05.06.03 | Teri, mo'yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi | 1 o'rin |
| 05.06.04 | Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni | 4 o'rin |
| 08.00.07 | Moliya, pul muomalasi va kredit | 2 o'rin |
| 08.00.13 | Menejment | 3 o'rin |
| 10.00.06 | Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik | 2 o'rin |

### DOKTORANTURA (DSc)

| | | |
|---|---|---|
| 05.06.02 | To'qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga dastlabki ishlov berish | 2 o'rin |
| 05.06.04 | Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni | 1 o'rin |
| 08.00.13 | Menejment | 1 o'rin |

**TAYANCH DOKTORANTURA (PHD) VA DOKTORANTURA (DSC)GA TALABGORLAR**

http://phd.mininnovation.uz/ sayti orqali onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi va quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi;
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi (DScga talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi, oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom nusxasi (PhDga talabgorlar uchun);
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblarining tegishli hujjat nusxasi (PhDga talabgorlar uchun);
- pasport nusxasi;
- xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi sertifikat nusxasi:
  *— filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida "C1" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat,*
  *— nofilologik yo'nalishlari bo'yicha esa "B2" darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.*

**Tayanch doktoranturaga talabgorlar mutaxassislik fanlaridan kirish imtihonlarini topshiradi.**

Hujjatlarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risida http://phd.mininnovation.uz/ saytidagi yo'riqnoma orqali tanishish mumkin.

Hujjatlarni qabul qilish muddati 2023-yilning 15-oktabrigacha.
Murojaat uchun manzil: Toshkent shahri, Shohjahon ko'chasi, 5-uy,
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining 5-binosi, 202-xona.
Telefonlar: 71-253-08-08, 71-253-61-05, 90-808-27-81.

## SOLIQ QO'MITASI HUZURIDAGI FISKAL INSTITUTI

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 304-sonli qaroriga muvofiq, 2024-yil uchun tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka 08.00.07 — "Moliya, pul muomalasi kredit" hamda 08.00.08 — "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" ixtisosliklari bo'yicha**

## QABUL E'LON QILADI

### Doktoranturaga (DSc)

**Talabgorlar uchun kerakli hujjatlar:**
- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqola hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezis);
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
- til bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

### Tayanch doktoranturaga (PhD)

**Talabgorlar uchun kerakli hujjatlar:**
- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka — namuna 3.5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganligi (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risida diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 1 maqola va 2 tezis);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa);
- til bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

### Maqsadli doktoranturaga (PhD)

**Talabgorlar uchun kerakli hujjatlar:**
- ariza;
- qisqacha biografik ma'lumot (obyektivka — namuna 3.5 shakl bo'yicha o'zbekcha va ruscha);
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun);
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomi yoki klinik ordinaturani tugatganligi (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risida diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek, ularning nusxalari (kamida 1 maqola va 2 tezis);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi hujjati nusxasi (mavjud bo'lsa);
- til bo'yicha milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat.

**Barcha hujjatlar pdf shaklida tayyorlanib, oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtiruvchi Yagona elektron tizimi (http://phd.mininnovation.uz) orqali ro'yxatdan o'tgan holda yuboriladi.**

**Qabul: 2023-yil 15-sentabrdan 15-oktabrgacha.**

**Qo'shimcha ma'lumot olish uchun Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institutining Ilmiy-tadqiqotlar bo'limi (93-598-66-58)ga (manzil: Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li, 3-uy) murojaat etish mumkin.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 941.33 058 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi ma'sul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir D. Karimov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 22.40 Topshirildi — 00.05 1 2 3 4 5 6